


## O'rmon va o'tloq



Keng yaylovda arilar,  
Kapalaklar uchadi.  
Guldan yozilgan gilam  
Bahri dilni ochadi.





O'rmon bu sirli olam,  
Daraxtlar o'sar ko'rkam.  
Qush navosi, sof havo –  
Beradi tanga davo.



O'rmon bilan yaylovning farqini ayting.



O'rmonda, o'tloqda yurish qoidalarini bilib oling.  
Yana qanday qoidalarni bilasiz?



Gulxan  
yoqmang



Gullarni  
yulmang



Daraxt shoxlarini  
sindirmang



Kapalaklarni  
o'ldirmang



Gullarni bosib,  
payhon qilmang



Bolalar o'rmonda va o'tloqda yurishning qaysi  
qoidalarni buzishdi?

